



INTERNET VA IJTIMOYIY TARMOQLAR LEKSIKASINING TILGA TA'SIRI

Nusratova Madinabonu

Buxoro davlat universiteti, Filologiya fakulteti

1-bosqich talabasi

Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna.

Ilmiy rahbar

Annotatsiya. *Bugungi kunga kelib, butun dunyo bo'yicha millionlab kompyuterlar, telefonlar va turli qurilmalarni o'zaro bog'laydigan global axborot tarmog'i ya'ni internet-barchaga birdek zarur bo'lib qoldi. Natija o'laroq yangicha so'zlarning kirib kelishi hammaga kundek ravshan. Ushbu maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida shakllanayotgan yangi leksik birliklar, ularning til tizimiga kirib kelish jarayoni hamda yoshlar nutqidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, internet tili o'zbek adabiy tiliga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy jihatlar yoritiladi.*

Abstract: *Today, the global information network connects millions of computers, phones, and devices. New words have entered common usage, and this article analyzes how social networks shape new lexical units, how they enter the language, the changes in young people's speech, and the positive and negative effects of the internet on the Uzbek literary language.*

Аннотация : *сегодня глобальная информационная сеть соединяет миллионы компьютеров, телефонов и устройств. В обиход вошли новые слова, и эта статья анализирует, как социальные сети формируют новые лексические единицы, как они входят в язык изменения в речи молодежи и положительные и отрицательные последствия интернета для узбекского литературного языка.*

Kalit so'zlar: *Internet, ijtimoiy tarmoq, inglizcha o'zlashmalar, qisqartma so'zlar, visual belgilar, muloqot jarayoni, Telegram, Facebook, Instagram, TikTok, trend, subscribe, like, gif, post.*

Keywords: *internet, social network, English borrowings, acronyms, visual symbols, communication process, Telegram, Facebook, Instagram, Tik Tok, trend, subscribe, like, gif, post.*

Ключевые слова: *интернет, социальная сеть, английские заимствования, аббревиатуры, визуальные символы, процесс коммуникации, телеграм ,Фасебоок, Инстаграм, Тик Ток, тренд, подписка, лайк, гифка, пост.*

Internet-lotinchacha inter-aro va net-tarmoq-standart minimal internet protokoli orqali ma'lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq to'plamidir.

Internet tizimi 20-asrning 60-yillarida paydo bo'lgan. O'sha paytlarda Amerika mudofaa departamenti tashabbusi bilan kompyuterlar telefon tarmoqlariga ulana boshlanadi, Dastlab,



bunday faoliyat takomillashtirilgan loyihalar agentligi tadqiqotlari doirasida olib borildi. 60-yillar oxiri va 70-yillarda internet tarmog'I uncha keng rivojlanmadi. Shuningdek, bu davrda turli tarqoq kompyuterlar tarmoqlari orasida informatsiyani uzatish va almashinish qoidalari tizimi ishlab chiqilgan.

80-yillarda internet o'ziga xos tarzda universal ko'lamlargacha rivojlana boshladi. O'sha davrda internet vositasida uzatiladigan informatsiyaning o'sishi oyiga 20 % dan ko'paytirib borish shiori ostida bordi. Agar 80-yillar oxirida internet tizimiga taalluqli 28000 dan ortiq asosiy kompyuterlar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 90-yillar oxiriga kelib, ularning soni o'nlarcha millionga yetdi. Internet xizmatidan foydalanuvchilar butun yer yuzida 160 million kishini tashkil etdi.

O'zbekistonda jadal rivojlanayotgan kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish sohalari internet tarmog'ining aloqa funksiyasidan keng foydalanishga imkon beradi. Internetga ulangan abonent uydagi yoki ishxonadagi kompyuter orqali xilma -xil mavzudagi ma'lumotlarni matn, surat yoki videotasvir ko'rinishida olishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoq - bu qiziqishlari o'xshash yoki oflayn aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun shuningdek, ko'ngilochar va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma.

1803-1869-yillarda yashagan rus yozuvchisi, faylasufi va jamoat arbobi Vladimir Odoyevskiy o'zining 1835-yilda yozilgan "4338-yil" tugallanmagan romanida zamonaviy bloglar va umuman internetning paydo bo'lishini bashorat qilgan edi. Unda aytilishicha, "tanish uylar o'rtasida magnit telegraflar joylashgan bo'lib, ular orqali uzoq masofada yashovchilar bir -biri bilan gaplashadi",- deya turli xil fikrlarni aytib o'tadi.

Mavzudan cheklanmagan holda shuni aytib o'tish lozimki, internetning hayotimizga kirib kelishi bilan bir qatorda kunora yangi so'zlarga ham duch kelmoqdamiz, jumladan, chat, blog, sayt, server, parol, akkaunt, post, like, follower va boshqa so'zlar shular turkumidandir. Ushbu leksik birliklar avval mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalab, tilning yangi semantik qatlamini shakllantirmoqda.

Bunday so'zlarning ko'pchiligi ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, ular global informatsiyatsiya jarayonining natijasi hisoblanadi. O'zbek tilida mazkur so'zlar ko'pincha asl talaffuzga yaqin shaklda qo'llanadi.

Telegram, Instagram, TikTok, Facebook kabi platformalar nafaqat muloqot maydoni, balki maxsus til tizimi shakllanadigan muhitdir.

Ularda uchraydigan til birliklari:

1.Qisqartmalar: ok, tg, insta, pls va hokazolar.

2.Internetga xos so'zlashuv uslubi: privet, salom, hammagaaa, zo'r-ku kabi erkin va o'zgaruvchan shakllar

Hashtaglar: mavzu yoki g'oyani kodlash vositasi(#motivatsiya, #trend, #blogger)

Emoji va giflar: ma'no yuklovchi kommunikativ birlik sifatida mustahkam o'rnashdi.



Bunday jarayonlar global miqyosda kechib, tilning turli sohalarida tezkor o'zgarishiga sabab bo'lyapti. Avvallari tilni gramatik vositalar boshqargan bo'lsa, endilikda qulaylik, tezkorlik va muloqotning ta'sirchanligi asosiy omilga aylanmoqda.

Masalan, SMS (Short message service = qisqa xabarlar xizmati), OMG (Oh my god= Voy xudo), OK kabi qisqa javoblar uzoq tushuntirishlarning o'rnini egallayapti.

Oldin rasmiy yozishmalarda gramatik xatolar qabul qilinmagan bo'lsa, hozir esa bu normal holatga aylanib bormoqda.

Buning asosiy sababi shuki, tezkor muloqot zaruriyati. Masalan, salom , qalesan?, yoki Nima gap? Kabi iboralar nafaqat kundalik suhbatlarda, balki rasmiy bo'lmagan elektron yozishmalarda ham keng qo'llanilmoqda.

Bu, albatta, juda qayg'uli, chunki tillar inson madaniyatining xilma-xilligini aks ettiradi va dunyoni qiziqtiradi. Axborot -kommunikatsiya texnologiyalari esa tillarni saqlab qolish hamda ularni o'zgartirishga yangi muammo tug'diradi. Shunga qaramay, axborot - kommunikatsiya texnologiyalari va boshqa raqamli vositalar tillarni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Kamida ular keyinchalik til yo'qolib qolsa, uni saqlab qolish uchun muhim manba bo'lishi mumkin. Audio yozuvlar orqali biz aksentlar, mahalliy shevalar va madaniyatni o'ziga xosliklarni saqlab qolish imkoniyatiga egamiz. Bu esa tarixiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu jarayonning ijobiy jihatlari bilan birgalikda, salbiy ta'sirlari ham mavjud. Bir tomondan, til yanada qulay va dinamik tus olmoqda. Muloqot soddalashib, tezlashmoqda. Boshqa tomondan esa, yozma madaniyat va klassik til me'yorlari o'z o'rnida yo'qolib borishi mumkin. Ilmiy, adabiy va rasmiy tilda ifodalanish san'ati pasayishi xavfi mavjud.

Ammo zamonaviy axborot texnologiyalarining til va muloqotga ta'siri, aslida, dunyo miqyosidagi global jarayonlarning bir qismi hisoblanadi. Bu jarayon haqida ko'plab olimlar va futuristlar ham o'z fikrlarini bildirgan. Masalan, Amerikalik mashhur yozuvchi, futurist va businessmen bo'lgan Elvin Eugene Toffler hayotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u "Axborot bu haddan ziyod yuk" ,- deb ataydi. Shoir 1980-yilda "Uchinchi to'lqin" nomli kitobini yozadi. Ushbu kitobda u klonlash, shaxsiy kompyuterlar, internet, kabel televideniya va mobil aloqa kabi texnologik yutuqlarni oldindan bashorat qilgan .

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Til - har doim rivojlanishda bo'lgan jarayon bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar uni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Muhimi, bu o'zgarishlar madaniy meros va an'anaviy yozma tilga zarar yetkazmasligi uchun har bir foydalanuvchi o'z tili va adabiyatini boyligini saqlashga mas'ul ekanligini unutmasligi lozim.

Internet va ijtimoiy tarmoqlari o'zbek tilining leksik tizimiga jadal ta'sir ko'rsatib kelayotganining natijasida yangi so'zlar, qisqartmalar va kommunikativ birliklar paydo bo'lib, tilning zamonaviy qatlamini shakllanayotgani tilimizning taraqqiyoti va moslashuvchanligini yanada yaqqol ifodalab bermoqda.





ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayev A. Internet tilshunosligi va yangi lingvistik jarayonlar. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
2. Rasulov R. Tilning leksik qatlamlari va ularning taraqqiyoti. Toshkent: Fan, 2018,
3. Ne'matov G', Rasulov R. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Toshkent davlat universiteti nasheiyoti, 2015
4. Qosimova M. Raqamli kommunikatsiya va zamonaviy til o'zgarishlari. Filologiya masalalari jurnali. 2021
5. Hamroyeva N. Ijtimoiy tarmoqlar tilining lingvistik xususiyatlari, O'zbek tili va adabiyoti- 2022.
6. Nizomiddinovna. K. N, Shodiyevna. N. S, Alimovna. K. G, Shonazarovna. E. D, Turakulovich. J. U. (2022) PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE TYPES OF FATIK COMMUNICATION AND ABOUT COMPLIMENTS. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3)
7. Nizomiddinovna. K. N (2021). Anthropocentric Approach to Language : Phatics and its Properties. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 2(10), 107-110.
8. Alimova S. Media tilshunoslik: nazariya va amaliyot. Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2021.